

PIRLS BAHOLASH DASTURI DOIRASIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Eshonkulova Hilola Rajab qizi

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21903284>

Annotatsiya. Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash tadqiqoti, unda yurtimizning ilk bor ishtiroki hamda Singapurning PIRLS tadqiqoti yaxshi ko‘rsatgich qayd etish omillari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. PIRLS, o‘qish savodxonligi, o‘qib tushunish, Singapur.

Аннотация. В статье описывается международное исследование PIRLS, первое участие в нем нашей страны и факторы, которые привели к хорошим результатам Сингапура в исследовании PIRLS.

Ключие слова. Ключевые слова. PIRLS, грамотность чтения, понимание прочитанного, Сингапур.

Annotation. This article describes the PIRLS international assessment research, our country's first participation in it, and the factors that led to Singapore's good performance in the PIRLS study.

Keywords. Keywords: PIRLS, reading literacy, reading comprehension, Singapore

Har bir zamon, davrning o‘z sohalari uchun yangilanishlari, evrilishlari shu sohaning va yondosh sohalarning yanada ham rivojini ta‘minlaydi. Ta‘lim sohasidagi yuksalish boshqa sohalarning o‘lishi uchun asos vazifasini o‘taydi. Ta‘limdagi olib borayotgan yo‘limiz qanchalik to‘g‘ri muvofiqligini aniqlash uchun xalqaro baholash dasturlariga ehtiyoj paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori qabul qililib, ta‘limga oid turli xil xalqaro baholash dasturlari orqali ta‘limdagi yutuq va kamchiliklarga yanada obyektiv nazar tashlashimiz uchun vosita bo‘ldi[1].

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarining matni o‘qib tushunish va o‘qish savodxonligini baholashga qaratilgan tadqiqot - PIRLS xalqaro baholash tizimidir. Bu baholash tizimida Respublikamizning PIRLS-2021 da 4-sinf o‘quvchilarining ishtiroki va ular qayd etgan natijalar o‘quvchilarning matni o‘qib va uni tushunish darajalari ko‘rsatgichlari 57 ta mamlakat va 8 ta mamlakat hududlari ichida pastroq natija kiritgan[2].

Ma‘lumot uchun: O‘zbekiston tadqiqotda 2016-yilda 1-sinfga borgan o‘quvchilar qatnashgan. Bundan oldin UNISEF o‘tkazgan tadqiqot 4-sinf o‘quvchilarining yarmidan ko‘prog‘i o‘qigan matni tushunmasligini ko‘rsatgandi[3].

PIRLS xalqaro tadqiqotida yuqori natijalarga erishib kelayotgan mamlakatlardanga – Singapur va Rossiyaning aytib o‘tish mumkin. Ushbu yutuq Singapurning erta savodxonlikni rivojlantirishga e‘tibori, o‘qish asoslariga diqqat qaratgani va o‘qishni o‘rgatishda uslubiy yondashuvi bilan bog‘langan.

Birinchidan, Singapurda o‘qib tushunish texnikalari o‘rgatishga moslashtirilgan va o‘qish dasturlari bolalarni sevimli o‘qishni targ‘ib qilish kabi usullarni kengaytirgan.

O‘qish strategiyalaridan foydalanish o‘qish jarayonini passiv faoliyatdan faol kognitiv jarayonga aylantiradi. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda kognitiv strategiyalar o‘quvchilarning bilish faoliyatini bevosita faollashtiradi, metakognitiv strategiyalar esa bu jarayonni ongli boshqarish imkonini beradi [5].

Ikkinchidan, o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini paydo qilish uchun o‘zini kasbiga bag‘ishlagan o‘rgatuvchilarning – doimiy kasbiy rivojlanishi.

Uchinchidan, bolalarni o‘qishga rag‘batlantiruvchi uy atmosferasi va ota-onalarning faolligi o‘qish savodxonligining rivojlanishiga omillardan biri bo‘ladi.

To‘rtinchidan, Singapur, shuningdek, o‘qishni tushunish texnikasini aniq o‘rgatish va keng qamrovli o‘qish dasturlari orqali o‘qishni targ‘ib qilish kabi muvaffaqiyatli o‘qitish usullarini rivojlantirgan.

Singapurda ota-onalar farzandlarini o‘qish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam berishlari uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Faol o‘qish. Ota-ona farzandini o‘qishi uchun rag‘batlantirishi, ruhlantirishdagi turtkisi. Bunda ota-ona farzandini o‘qiyotgan matnini diqqat bilan o‘qishi(ya‘ni o‘qigan qismlarining muhimlari tagiga chizishi, eslatma sifatida yozishi), bolaning o‘qiganlari haqida undan so‘rashi, savol-javob qilishi va uning matn haqidagi umumlashtirishini tinglashi kabilarni kiritisa bo‘ladi.

2. Shug‘ullanish, shug‘ullanish va yana shug‘ullanish. Bolaning o‘qiganlarini takrorlab borishi. Biror masala yoki fikrni tushunmaguncha doimiy ravishda shunga o‘xshash mashqlarni ustida mashg‘ul bo‘lishiga ahamiyat berishi.

3. Tartib. Farzandlari o‘quv materiallarini, qaydlarini va uy ishlarini rejalashtirishga o‘rgatishlari – bu o‘qish mobaynida duch kelishi mumkin bo‘lgan stresslarni yengishga o‘qishdagi natijasi o‘sishiga yordam berishi.

4. Aql xaritasi. Bolalarning o‘qiyotgan har bir matnni eslab qolish va uni tushunishining visual ko‘rinishidir. Bu keyinchalik bu xaritalar orqali o‘qigan matnini xotirada saqlashi, qayta tiklashi va undan ma’lumotnoma sifatida foydalanishi uchun qo‘l keladi.

5. Jamoaviy o‘rganish. Farzandining o‘qishi sinfdoshlari yoki do‘stlari bilan birgalikda amalga oshirishi ancha foydali. Bolani do‘stlari bilan o‘qishga va birgalikda ular o‘qiganlari bo‘yicha tajriba amashishiga undash.

Singapurda ota-onalarning farzandlari uchun faol o‘qish, shug‘ullanish, tartib, aql xaritasi, jamoaviy o‘rganish kabilarni kun tartibiga kiritish orqali ularda o‘z salohiyatini ko‘rsatish va muvaffaqiyatini namoyish etishga yordam beradi deb hisoblanadi[4].

Rossiyaning ham PIRLS tadqiqotida yaxshi o‘rinlarni egallashiga bog‘liq faktorlar mavjud bo‘lib, ularga:

- ota-onalar, o‘qituvchilar va yosh maktab o‘quvchilarining o‘rtasida o‘qish doirasini kengaytirish, o‘qish ko‘nikmalarini oshirish, oila va maktab darajasida o‘qishga yuqori motivatsiyani qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan munosabatni saqlash;

- ota-onalarning bolalarni maktabga sifatli tayyorlash, ota-onalarning bolalar bilan faol faoliyati, o‘qish malakasini egallash uchun mustahkam zamin yaratish, ayrim hollarda esa bu ko‘nikmani maktabgacha o‘zlashtirishdan manfaatdorligi;

- boshlang‘ich umumiy ta’limda nafaqat badiiy adabiyot, balki ilmiy-ommabop matnlar ustida ham ishlash muhimligini mustahkamlash;

- ongli o‘qish va axborot bilan ishlashni shakllantirish;

- o‘qishni o‘rgatishning mahalliy usullari yutuqlari, darsliklarga yangi matn formatlarini joriy etish bilan bog‘liq innovatsiyalarning oqilona kombinatsiyasi;

- o‘qishda qiynalayotgan o‘quvchilar bilan ishlashda puxta o‘ylangan ilmiy-uslubiy yondashuvlarning mavjudligi, o‘zlashtirishi sust bo‘lgan bolalarga ko‘proq e’tibor qaratilgan tabaqalashtirilgan ishlardan foydalanish. Shu bilan birga, tushunmasdan o‘qish darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tanqidiy fikrlar aniqlandi[6].

“O‘quvchilarimizni bizning o‘tmishimizga emas, ularning kelajagiga tayyorlash”[7] bizning ta’limda olib borayotgan say-harakatlarimiz kelajak avlodning yaxshi erta uchun poydevor vazifasini o‘taydi. PIRLS taqdiqotlari tushunish ko‘rsatgichlarining oshishiga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori

2. A.Ismailov va b. O‘qish savodxonligi bo‘yicha xalqaro natijalar. - TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi, Linch ta’lim va inson taraqqiyoti maktabi, Boston kolleji va Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro asstsiatsiyasi. T.: 2023y

3. K.Jalilov. PIRLS tadqiqotlarida ilk bor ishtirok etgan O‘zbekiston 57 mamlakat orasida 49-o‘rinni egalladi // gazeta.uz, 2023-yil.

4. 4. Top Study Techniques for Primary School Students in Singapore // Sigaram Tamil Tuition. – URL: <https://sigaramtamiltuition.com/top-study-techniques-for-primary-school-students-in-singapore/>

5. H.R.Eshonkulova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish strategiyalari // “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali, 2025-yil, oktyabr, 11-son, 414-411-b.

6. М.И.Кузнецова. Международное сравнительное исследование PIRLS: возможности использования результатов для совершенствования читательской грамотности российских младших школьников // Дидактика и методика образования, 2017.

7. A.Shlyayxer. Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? / umumiy tahrir D.Norboyeva. –Toshkent: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022-yil, -34-b.